



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

TURKISTONDA HARBIY ASIRLARNING SIYOSIY-HARBIY FAOLIYATLARI (1917-1922)

Tojiboyev Jaxongir Ixomovich

Namangan davlat universiteti, doktoranti (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada 1917-1922-yillarda Turkistondagi harbiy asirlarning siyosiy va harbiy jarayonlardagi ishtiroki tahlil qilinadi. Fevral inqilobi va Oktyabr to'ntarishidan keyin sobiq harbiy asirlarning huquqiy maqomi, ijtimoiy faolligi hamda siyosiy qarashlarida yuz bergan o'zgarishlar ochib beriladi. Tadqiqotda ularning Qizil armiya safiga qo'shilishi, turli siyosiy qo'mitalar, kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlaridagi faoliyati yoritiladi. Shuningdek, sobiq harbiy asirlarning Turkistonda sovet hokimiyatini mustahkamlash, targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish, qurolli qarshilik harakatlariga qarshi kurashdagi o'rni ko'rsatib beriladi. Maqolada harbiy asirlar faqat urush davrining ijtimoiy oqibati sifatida emas, balki mintaqaning siyosiy-harbiy hayotida muhim rol o'ynagan faol kuch sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Turkiston, harbiy asirlar, Qizil armiya, Fevral inqilobi, Oktyabr to'ntarishi, sovet hokimiyati, siyosiy tashkilotlar, kasaba uyushmalari, chet el fuqarolari qo'mitasi, qarshilik harakati.

ПОЛИТИКО-ВОЕННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ВОЕННОПЛЕМЕННЫХ В ТУРКЕСТАНЕ (1917-1922)

Тожибоев Жахонгир Илхомович

Наманганский государственный университет, докторант (PhD)

Аннотация

В данной статье анализируется участие военнопленных в политических и военно-административных процессах Туркестана в 1917–1922 годах. Показано, что после Февральской революции и Октябрьского переворота правовое положение, общественная активность и политические взгляды бывших военнопленных существенно изменились. В исследовании освещаются их вступление в ряды Красной армии, участие в политических комитетах, профсоюзах и общественных организациях. Особое внимание уделяется роли бывших военнопленных в укреплении советской власти в Туркестане, в проведении агитационно-пропагандистской работы, а также в борьбе против вооружённого сопротивления. В статье делается вывод о том, что военнопленные были не только следствием военного времени, но и важным субъектом политико-военной жизни региона.

Ключевые слова: Туркестан, военнопленные, Красная армия, Февральская революция, Октябрьский переворот, советская власть, политические организации, профсоюзы, комитет иностранных граждан, движение сопротивления.

POLITICAL AND MILITARY ACTIVITIES OF PRISONERS OF WAR IN TURKESTAN (1917–1922)

Tojiboyev Jakhongir Ikhomovich

Namangan State University, Doctoral Student (PhD)

Abstract

This article examines the political and military activities of prisoners of war in Turkestan between 1917 and 1922. It shows that after the February Revolution and the October Revolution, the legal status, public activity, and political views of former prisoners of war changed significantly. The study highlights their participation in the Red Army, political committees, trade unions, and public organizations. Special attention is paid to the role of former prisoners of war in

strengthening Soviet power in Turkestan, conducting propaganda work, and participating in the struggle against armed resistance movements. The article concludes that prisoners of war should be regarded not only as a consequence of wartime conditions, but also as an active force in the political and military life of the region.

Keywords: Turkestan, prisoners of war, Red Army, February Revolution, October Revolution, Soviet power, political organizations, trade unions, committee of foreign citizens, resistance movement.

Birinchi jahon urushi davrida Rossiya imperiyasi hududiga ko'plab harbiy asirlar joylashtirilgan bo'lib, ularning muayyan qismi Turkiston o'lkasiga yuborilgan edi. 1917-yilda Rossiyada yuz bergan Fevral inqilobi va undan keyingi Oktyabr to'ntarishi nafaqat imperiya siyosiy tuzumini o'zgartirdi, balki harbiy asirlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rniga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Avvaliga urush tugab, o'z yurtiga qaytishni kutgan harbiy asirlar keyinchalik Turkistondagi inqilobiy jarayonlar, sovet hokimiyatining shakllanishi va fuqarolar urushi sharoitida yangi siyosiy-harbiy reallikning faol ishtirokchilariga aylana boshladilar. Maqolada aynan ana shu davrda sobiq harbiy asirlarning siyosiy komitetlar, kasaba uyushmalari, harbiy tuzilmalar va targ'ibot tizimidagi faoliyati tahlil etiladi. Tadqiqotning maqsadi 1917–1922-yillarda Turkistondagi harbiy asirlarning siyosiy-harbiy faoliyatini ochib berish hamda ularning mintaqa tarixidagi o'rnini baholashdan iborat [18; 23; 27].

Mazkur mavzuni o'rganishda birlamchi va ikkilamchi manbalar uyg'unligidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, sobiq harbiy asirlarning esdaliklari, kundaliklari va xotiralari tadqiqot uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Xususan, K. K. Bots, Eduard Irmish, F. Villfort, Gustav Senchek, Shtefan Gann kabi shaxslarning xotiralari orqali 1917-yildan keyingi siyosiy kayfiyat, lagerlardagi vaziyat, ozodlikka chiqish jarayoni va Qizil gvardiya hamda Qizil armiya safiga qo'shilish sabablari yoritiladi [14; 17; 23; 25]. Bunday manbalar voqealarning bevosita ishtirokchilari tomonidan yozilgani bilan qimmatli bo'lsa-da, ularni rasmiy hujjatlar bilan qiyosiy ko'rib chiqish talab etiladi [4; 7; 8; 10]. Shuningdek, Turkiston Xalq Komissarlari Soveti, Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi, viloyat va uyezd harbiy boshqarmalariga oid arxiv ma'lumotlari sobiq harbiy asirlarning huquqiy maqomi va amaliy faoliyatini o'rganishda muhim manbaviy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu materiallar harbiy asirlarning ozod etilishi, fuqarolik erkinliklariga ega bo'lishi, ishga joylashtirilishi, siyosiy va harbiy tuzilmalarga jalb qilinishi kabi masalalarni yoritishga yordam beradi. Ayniqsa, ularning turli qo'mitalar, kasaba uyushmalari va sovet hokimiyati organlari bilan aloqadorligi mavzuning institutsional tomonini ochib beradi [4; 7; 8; 10; 18; 27]. Tadqiqotda tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga tayangan holda muammo-xronologik, qiyosiy-tarixiy, tahliliy va manbashunoslik usullaridan foydalanildi. Muammo-xronologik yondashuv yordamida 1917–1922-yillardagi siyosiy voqealar ketma-ketligi asosida harbiy asirlar faoliyatining bosqichlari ko'rsatildi. Qiyosiy-tarixiy usul orqali turli millat vakillariga mansub sobiq asirlarning siyosiy va harbiy faoliyati o'zaro solishtirildi. Manbashunoslik tahlili esa xotiralar, rasmiy hujjatlar va statistik ma'lumotlarning ilmiy qiymatini aniqlash imkonini berdi. Shu asosda harbiy asirlarning Turkiston siyosiy-harbiy hayotidagi ishtiroki kompleks tarzda yoritildi [14; 18; 23; 27].

Harbiy asirlar urushning tezroq tugashini va o'z vatanlariga qaytishlarini kutardilar. Shu sababli harbiy asirlikdagi askar va zobitlar Fevral (1917) inqilobini katta umidlar bilan qarshi oldilar. Ular bu urushning oxiri deb xayol qilishgan va ushbu siyosiy voqeadan so'ng uylariga qaytishlariga umid bog'lashgan edi. Lekin Muvaqqat hukumat g'alabali yakungacha kurashishga qaror qildi va harbiy asirlarning orzu-umidlari chippakka chiqdi. Fevral inqilobi davrida Turkistonda 41 285 nafar harbiy asir bor edi. Asirlikdagilarning 3 515 nafari nemis va 36 066 nafari avstro-venger askarlari edi. Shuningdek, 50 nafar nemis va 1 714 nafar avstro-venger zobitlari ham asirlik davrini o'tayotgan edilar [4, 38–39-vv.]. Harbiy asirlar sonining kamayib ketishiga sabab sifatida ularning Rossiyaning markaziy va janubiy hududlaridagi sanoat zonalariga ishchi kuchi kerakligi tufayli Turkistondan ko'chirilganligini ta'kidlash darkor [26, 39–

40-b.].

Harbiy asirlar Rossiyada samoderjaviye ag‘darilgandan so‘ng ham siyosiy hayotda qanday jarayonlar kechayotganidan doimo boxabar bo‘lib turishgan. Samoderjaviye Rossiyada monarxning cheklanmagan hokimiyatiga asoslangan davlat tuzumi, ya‘ni mutlaq hokimiyat shakli sifatida izohlanadi [11, 205-b.]. Masalan, Samarqand lagerida asirlikda bo‘lgan venger harbiyi K. K. Botsning eslashicha, shaharda ishlovchi harbiy asirlar ularga Rossiya va Turkistonda qanday siyosiy voqealar ro‘y berayotganligini yetkazib turganlar [23, 104-b.]. Nemis Eduard Irmishning xotirlashicha, Yettisuv temiryo‘li qurilishida ishlayotgan davrda ular qo‘riqlovchi rus harbiylaridan atrofda bo‘layotgan siyosiy-harbiy yangiliklardan xabardor bo‘lib turishgan [23, 104-b.]. Nemis harbiy asiri F. Villfortning “Turkiston kundaligi” kitobida keltirilishicha, 1917-yilgi inqilob barcha harbiy asirlarni hayajonga solgan. Rossiya imperiyasining bir tuzumdan boshqasiga o‘tish jarayoni harbiy asirlarning ahvolini yaxshi tomonga o‘zgarishiga ham sabab bo‘lgan. Rus va musulmon aholisining umumiy yig‘ilishida yosh yigitcha Skobelev harbiy gubernatori sifatida saylandi hamda uning sa‘y-harakatlari bilan askar va zobitlar mahalliy aholi vakillari bilan bir xil maqomga ega bo‘ldilar, deb xotirlaydi u [14, 69–81-b.].

Turkiston o‘lkasida ham aksariyat harbiy asirlar Qizil armiya safiga kirib, o‘z xizmatlarini ikkinchi vatanlariga aylanib qolgan hududlarda davom ettirdilar. Sobiq harbiy asir, Chexoslovak kommunistik partiyasi a‘zosi Gustav Senchek bu jarayonni quyidagicha xotirlagan: “Turkistonda sovet hokimiyati o‘rnatilgandan so‘ng maxsus farmon bilan biz, harbiy asirlarga to‘liq ozodlik berildi. Uyg‘a boring yoki mahalliy aholi bilan qoling va ishlang yoxud Qizil gvardiyaga qo‘shiling hamda inqilob dushmanlariga qarshi kurashing. Men va mening ko‘plab o‘rtoqlarim ikkinchisini tanladik. Biz Qizil gvardiyaga bordik” [17]. Boshqa bir harbiy asir Shtefan Gann 1917-yil Oktyabr to‘ntarishidan keyin lagerdagi hayoti va uning “qizil gvardiyachi”lardan biriga aylanishini o‘z xotiralarida quyidagicha yozib qoldirgan: “Proletar inqilobi sodir bo‘lgan 1917-yil oktyabrgacha asirlar lagerida yashadim. Aytish kerakki, ko‘pchiligimiz, Avstriya-Vengriya armiyasining askarlari – chexlar va slovaklar – rus asirlikiga ixtiyoriy ravishda taslim bo‘lishga intildik, chunki Rossiyaga qarshi rasmiy targ‘ibotlarga qaramay, biz hammamiz slavyan edik, shuning uchun bir kun ichida ko‘pchiligimiz Qizil gvardiya safiga qo‘shilishga qaror qildik. Biz harbiy kiyimlarni oldik va 1918-yilning may oyida qo‘rg‘onda harbiy tayyorgarlikdan o‘tib, Qizil armiya safiga yozildik” [25].

Harbiy asirlar Turkistonning harbiy tizimida ham o‘z faoliyatlarini olib borganlar. Masalan, 1918-yilda Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on uyezdida Xalq armiyasi tashkil etildi. Uning tarkibida sobiq harbiy asirlar Yuzef Kuns, Bela Kovach va Shuls Bogemil kabi avstro-venger harbiylari ham bor edi [7, 13, 17-vv.]. Sirdaryo viloyati harbiy boshqarmasi Toshkent uyezdi harbiy bo‘limida 1919-yil 13-fevral holatiga ko‘ra, sobiq harbiy asirlar – Genrix Paxl, Oskar Vinner va Iosif Gurskiylar harbiy xizmatchi sifatida faoliyat olib borganlar [10, 18-v.]. Shuningdek, Samarqand viloyat harbiy boshqarmasining 1920-yil 31-yanvardagi ma‘lumotlariga ko‘ra, sobiq avstro-venger asirlari harbiy xizmatda bo‘lganlar [8, 7-v.]. Oktyabr to‘ntarishidan keyin ko‘plab chex harbiy asirlari Qizil armiya safiga qo‘shilganlar: ba‘zilari e‘tiqodlari mushtarakligi tufayli, ayrimlari bolshevik targ‘iboti ta‘siri ostida, boshqalari shunchaki “uyg‘a yo‘l topish”ga harakat qilish maqsadida ushbu yo‘lni tanlaganlar. 1920-yil sentyabrda chex-slovak kommunistlarining ilk kongressi bo‘lib o‘tdi va ana shu kongress asosida Chexoslovak hududiy byurosi tashkil etildi [27, 77–78-b.]. Biroq uning aksariyat a‘zolari Chexoslovakiyaga qaytib ketdi va 1921-yilda byuro tarqatib yuborildi. Ba‘zi chexlar Turkistonda Qizil armiya safida qolib, “bosmachilik” harakatiga qarshi kurashda qatnashganlar. Ushbu toifadagi shaxslarning eng ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri 1918–1924-yillarda Farg‘ona viloyatida militsiya boshlig‘i bo‘lib ishlagan Yuray Smeyrek edi [16, 54-b.].

1918-yilning 27-aprelida Turkiston Xalq Komissarlari Soveti (XKS)ning dekreti bilan harbiy asirlar turma-lager tartibotidan ozod etildilar [27, 20-b.]. Bu esa ularga sovet hokimiyati tomonidan to‘liq fuqarolik erkinligi berilganidan dalolat edi. 1918-yil boshlarida Butunrossiya

Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (BMIQ)ning dekreti bilan harbiy asirlar va qochoqlar ishlari bo'yicha Markaziy Kengash tuzildi. Toshkentda Turkiston XKS huzurida o'lkadagi asirlar va qochoqlar ishlari bo'yicha vakolatli organ tashkil etildi [18, 69-b.]. Bu tashkilotlar sobiq harbiy asirlar ichida bo'lib o'tayotgan siyosiy jarayonlar va ularning kutilajak ta'siri haqida tashviqot-targ'ibot ishlarini olib bordilar. Sovet hokimiyati tomonidan harbiy asirlarning ozodlikka chiqarilishi va ularga fuqarolik erkinligining berilishi proletar internatsionalizmi va birodarlik g'oyalarning asirlikdagi harbiylar orasida keng yoyilishiga olib keldi. Proletar internatsionalizmi barcha xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik prinsiplarini himoya qilish, shovinizm, millatchilik, irqchilik va imperializmga qarshi butun dunyo proletarlari hamda mehnatkashlarining birdamligini anglatadi [11, 192-b.].

Harbiy asirlar tomonidan turli siyosiy tashkilotlar tuzilgan. Jumladan, 1917-yil iyunda Toshkent harbiy lagerida yashovchi janubiy slavyanlar Fedor Shay, Adolf Puxes va Matvey Mikulichlar boshchiligida xorvat zobitlari qo'mitasini tuzishdi. Bu tashkilot Oktyabr to'ntarishigacha bo'lgan davrda tuzilgan janubiy slavyan harbiy asirlari orasidagi ilk qo'mita edi [1, 6-v.]. 1918-yilning aprelida Toshkentda chet el fuqarolari qo'mitasi tashkil etildi. Unga avstriyalik Maks Grosser rahbarlik qilgan [13, 248-b.]. Shu vaqtdan boshlab avstriyaliklar sekin-asta o'z yurtlariga qayta boshlaganlar. Lekin ayrim harbiy asirlar Turkiston o'lkasida qolishni afzal ko'rganlar va o'lka qurilish madaniyatiga hissa qo'shganlar. Bu tuzilmaning asosiy vazifasi sobiq harbiy asirlarni hisobga olish, ishga joylashtirish va xizmat ko'rsatish bo'yicha ko'plab tashkiliy-iqtisodiy ishlarni amalga oshirishdan iborat bo'lgan. Ushbu qo'mita sovet hokimiyati organlari bilan uzviy aloqada bo'lgan va doimo ular o'rtasida voqealar tafsilotlari yuzasidan ma'lumotlar almashinuvi bo'lib turgan. Chet el fuqarolari qo'mitasi tarkibida ikki chex harbiy asiri – Genrix Yelenek va Kaler Drabeklar bor edi [13, 248-b.]. Xuddi shu vaqtda Samarqandda ham Toshkentdagiga o'xshash qo'mita tashkil etildi. Uning faol a'zolaridan biri chex harbiy asiri G. Svoboda bo'lgan [24]. Shuningdek, harbiy asirlar – Bokesh, Lupinek, Sosniskiy va Troyanlar qochoqlarga yordam ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullangan Tatyannin komitetida ish faoliyatini olib borganlar [2, 323-v.].

Qayd etish kerakki, 1919-yilda Turkistondagi RKP(b) partiyasining 3 336 a'zosidan 1 545 nafari sobiq harbiy asirlar edi [27, 5-b.]. RKP(b)ning tashviqot-targ'ibot ishlarida avstro-venger va nemis harbiy asirlari muhim ahamiyat kasb etgan [12, 31–39-b.]. 1920-yil may oyida Turkiston o'lkasida viloyat va uyezd-shahar kommunistlarining konferensiyasi bo'lib o'tdi. Qatnashchilarning aksariyati sobiq nemis harbiy asirlari edi [20, 89-b.].

Harbiy asirlikdan ozod bo'lib, ishchiga aylangan harbiylar o'zlarining ish jarayonlarini himoya qilish maqsadida kasaba uyushmalariga ham birlashganlar [9, 80, 108-vv.]. Xususan, 1918-yilda Samarqandda chet ellik ishchilarning, shu jumladan, harbiy asirlarning ilk kasaba uyushmasi o'z faoliyatini boshladi [15, 39-b.]. Namangan uyezdidagi Xalq Xo'jaligi Kengashida chex harbiy asiri Y. Sedlyachek mehnat faoliyatini olib borgan [6, 51-v.].

Oktyabr to'ntarishi ta'siri Turkistonda faoliyat olib borayotgan chet el fuqarolari uchun sezilarli bo'lgan. Inqilobiy holatda sotsialistlarning g'alabasi harbiy asirlarning siyosat maydoniga aralashuvlari uchun keng yo'l ochib bergan. Bunga ularning aynan partiya tarafida bo'lib kurashganliklari va g'alabaga hissa qo'shganliklari asosiy sabab bo'lgan. RKP(b)ning tarkibiy qismi hisoblangan Turkiston kommunistik partiyasi bolsheviklarning eng asosiy jangari otryadlaridan biri bo'lgan. Partiya tuzilishining dastlabki kunlaridanoq uning tarkibidagi harbiy asirlar interventlar, "oq gvardiyachi"lar va "bosmachilar"ga qarshi kurashni boshlab yubordilar. Intervent intervensiya uyushtiruvchi yoki unda qatnashuvchi shaxs sifatida izohlanadi [22, 103-b.]. "Oq gvardiya" esa 1917–1922-yillardagi fuqarolar urushi davrida Rossiyada bolsheviklarga qarshi tuzilgan turli harbiy-siyosiy kuchlar harakati sifatida tavsiflanadi [29, 57-b.; 21, 24-b.; 28, 229–230-b.]. Partiya a'zolari bo'lgan sobiq harbiy asirlar Butunjahon proletariat inqilobiga xayrixoh bo'lganliklari uchun ham bolsheviklar tomonida inqilob uchun janglarda ishtirok etganlar.

1917-yilning mayidan to oktyabrigacha Turkiston o'lkasida mavjud bo'lgan 41 ming nafardan ortiq harbiy asirlardan 2 646 nafari (2 569 nafar askar va 77 nafar zobit) ko'ngilli sifatida yollandilar. Ular orasida serb, xorvat va boshqa slavyan millatiga mansub 1 946 nafar askar va 12 nafar zobit, ruminlardan 100 nafar askar va 8 nafar zobit, italyanlardan 267 nafar askar va 7 nafar zobit, chex va slovaklardan 206 nafar askar va 55 nafar zobit hamda Elzas-Lotaringiyadan 50 dan ortiq fransuzlar bor edi [23, 97-b.]. O'lkada kommunistik tashkilot va ko'ngillilardan iborat legion tuzish maqsadida chet el kommunistlari Markaziy federatsiyasi vakillari Fagler, Lorand va Zentfleberlar 1918-yilning yozida Turkistonga tashrif buyurdilar [18, 70-b.]. Turkistondagi xorijiy tashkilotlarning keyingi faoliyati ularning bolshevistik tashkilotlar bilan munosabati yaxshi bo'lganligini ko'rsatadi.

Kommunistlarga "aylangan" harbiy asirlar partiyaning matbaa va matbuot ishlarida keng ko'lamli ishlarni amalga oshirib, kommunistik g'oyalarni butun dunyoda yoyishda asosiy rol o'ynaganlar. Tashqi ishlar komissarligi qoshida xorijiy adabiyotlarni nashr etish bilan shug'ullanadigan maxsus bo'lim tashkil etildi. Chunonchi, ular tomonidan venger, nemis, yugoslav kabi tillarga maqolalar tarjima qilinib, omma ixtiyoriga taqdim etilgan. Shuningdek, ular markscha adabiyotning xorijiy tillarga tarjima qilinishi va ularning chop etilishida mehnat qilganlar; turli xil mitinglar, ma'ruzalar va davra suhbatlarida o'z chiqishlari bilan namoyon bo'lganlar [19].

Sovet hokimiyati dushmanlariga qarshi kurashda turli xil millatga mansub harbiy asirlar – venger, chex, slovak, polyak, nemis, ruminlarning xizmatlari diqqatga sazovordir. Sovet Turkistoni harbiy qo'shini tarkibida harbiy asirlar salmog'i yuqori edi. Masalan, 1918-yilning iyulida tuzilgan Toshkent harbiy drujinasida 542 nafar jangchidan 160 nafari sobiq harbiy asirlar edi. Bularning ko'pchiligini venger millatiga mansublar tashkil etgan [27, 103-b.]. Harbiy asirlar ruslar tomonidan "bosmachilik" harakati sifatida talqin etilgan, aslida esa qarshilik harakati hisoblangan jarayonga qarshi kurashda ham faol ishtirok etganlar. Ular qarshilik harakati qo'rboshilaridan hisoblangan Katta Ergash, Omon Polvon va Madaminbekka qarshi Farg'ona vodiysidagi kurashda qatnashganlar [18, 70-b.]. Bundan tashqari, kommunistik partiya vakiliga aylangan sobiq harbiy asirlar sovet tartibotiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonlarni bostirishda ham faol ishtirok etganlar. Xususan, 1919-yil 18–21-yanvar kunlarida Toshkentda Turkiston ASSR harbiy komissari K. Osipov boshchiligida sovet rejimiga qarshi isyon ko'tarilgan. Qizil gvardiya tarkibidagi sobiq harbiy asirlar ushbu isyonni bostirishda jonbozlik ko'rsatib, Qizil armiyaning yuqori harbiy unvon va ordenlari bilan taqdirlanganlar [18, 71-b.]. Hattoki, ular Birinchi jahon urushi yakunida o'z davlatlariga qarshi janglar olib borganligi qayd etib o'tiladi [3, 46-v.].

Avstriya-Vengriya armiyasining asirga olingan ko'plab askarlari rus askarlari bilan do'stona munosabatlarni o'rnatdilar, bu ularga noqonuniy inqilobiy adabiyotlarni o'qishga imkon berdi. 1917-yilda ko'plab mahbuslar faollashdilar, inqilobiy mitinglarda ishtirok etdilar va Oktyabr voqealaridan keyin Qizil gvardiya saflariga kirdilar. RSFSR Inqilobiy harbiy Soveti raisi o'rinbosari E. Sklaynskiy tomonidan 1919-yil 3-yanvarda Moskvada imzolangan buyruqqa asosan, harbiy asirlarning Qizil armiya saflariga olinishi haqida quyidagicha fikr bildirilgan: "Ko'ngilli harbiy asirlar agarda Qizil armiya saflariga qo'shilishni xohlasalar, harbiy asirlikdagi muddatlari kamaytiriladi" [5, 15-v.]. 1920-yil 10-mayda Mehnat va mudofaa soveti Turkfront qo'mondoni M. Frunze buyrug'i asosida Qizil armiyaga rus bo'lmagan millatlarni chaqirish haqida qaror qabul qilindi [30].

Yuqoridagi ma'lumotlardan ayonki, harbiy asirlar Turkistonning siyosiy-harbiy hayotida ham muhim o'rin egallaganlar. Fevral inqilobi va Oktyabr to'ntarishi kabi siyosiy voqealikka ularga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Ana shu ikki siyosiy jarayon oralig'ida asirlar tomonidan komitetlar, kasaba uyushmalari va siyosiy partiyalar tuzildi hamda bu tashkilotlar Turkistonning siyosat maydonida o'z o'rniga ega bo'ldi. Harbiy asirlar, hattoki, Qizil armiya saflariga kirib, o'z vatanlariga va Oq armiyaga qarshi kurashlarda qatnashdilar. Harbiy asirlarning Turkistonning siyosiy hayotidagi ishtiroki ularning jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishida muhim o'rin tutgan.

Bora-bora sobiq harbiy asirlar boshqaruvning turli sohalarida ishlashni ham boshladilar. Bu esa ularning rus hukumatining ishonchiga kirganligidan dalolat edi. Shu jihatdan, harbiy asirlar Turkiston tarixida faqat urush oqibatida yuzaga kelgan ijtimoiy qatlam emas, balki siyosiy va harbiy o'zgarishlarga bevosita ta'sir ko'rsatgan faol kuch sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa mavzuni Turkistonning inqilobiy davr tarixi va ijtimoiy transformatsiyasi nuqtai nazaridan yanada chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi [18; 23; 27].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Milliy arxivi, I-737-fond, 1-ro'yxat, 3-yig'ma jild, 6-varaq.
2. O'zbekiston Milliy arxivi, I-737-fond, 1-ro'yxat, 6-yig'ma jild, 323-varaq.
3. O'zbekiston Milliy arxivi, I-738-fond, 1-ro'yxat, 3-yig'ma jild, 46-varaq.
4. O'zbekiston Milliy arxivi, R-25-fond, 1-ro'yxat, 18-yig'ma jild, 38–39-varaqlar.
5. Farg'ona viloyati davlat arxivi, 676-fond, 1-ro'yxat, 1-yig'ma jild, 15-varaq.
6. Namangan viloyati davlat arxivi, 243-fond, 2-ro'yxat, 21-yig'ma jild, 51-varaq.
7. Samarqand viloyati davlat arxivi, 1012-fond, 1-ro'yxat, 14-yig'ma jild, 13, 17-varaqlar.
8. Samarqand viloyati davlat arxivi, 151-fond, 1-ro'yxat, 63-yig'ma jild, 7-varaq.
9. Toshkent viloyati davlat arxivi, 10-fond, 1-ro'yxat, 8-yig'ma jild, 80, 108-varaqlar.
10. Toshkent viloyati davlat arxivi, 614-fond, 1-ro'yxat, 2-yig'ma jild, 18-varaq.
11. Bekmuhammedov H. Yu. Tarix terminlarining izohli lug'ati. — Toshkent: O'qituvchi, 1986.
12. Чеботарёва В. Г. Германские и австрийские интернационалисты в Туркестане // *Общественные науки в Узбекистане*. — 1985. — № 2. — С. 31–39.
13. Этнический атлас Узбекистана. Ташкент: ИООФС. Узбекистан; ЛИА «Р.Элинина», 2002.
14. Виллфорт Ф. Туркестанский дневник: шесть лет в Русской Центральной Азии. Вена; Лейпциг: Вильгельм Браумюллер, 1930.
15. Генчке В. Из истории польской диаспоры // *O'zbekiston tarixi*. — 2001. — № 1. — С. 39.
16. Горак С. Из истории чешско-узбекских отношений // *O'zbekiston tarixi*. 2014. № 3. С. 54.
17. Сенчек Г. От Кракова до Туркестана: воспоминания словацкого военнопленного
18. Хамидходжаев А., Аренберг Р. Пролетарские интернационалисты в Туркестане // *O'zbekistonda ijtimoiy fanlar*. — 1962. — № 10. — С. 69–71.
19. Конев А. М. Красная гвардия на защите Октября: зарубежные интернационалисты в Красной гвардии [Электронный ресурс]. — URL: <https://leninism.su/>
20. Кригер В. Рейн — Волга — Иртыш: из истории немцев Центральной Азии. — Алматы: Дайк-Пресс, 2006.
21. Лубков А. В., Цветков В. Ж. Белое движение в России: его программа и вожди. — Москва, 2003.
22. Madvaliyev A., Mahkamov N. va boshq. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug'ati. — Toshkent: SANHOF, 2020.
23. Matveyev A. M. Zarubezhnyye vykhodtsy v Turkeстане na putyakh k Velikomu Oktyabryu (1914–1917). — Tashkent: Fan, 1977.
24. O'zbekistondagi cheklar [Elektron manba]. — URL: <https://www.mzv.cz/>
25. Ган Ш. Мы дрались за Ташкент (воспоминания словацкого военнопленного)
26. Сиргебаев Б. Под знаменем интернационализма. — Алматы, 1988.
27. Сологубов И. С. Иностранцы коммунисты в Туркестане (1918–1921 гг.). — Ташкент: Госиздат УзССР, 1961.
28. Цветков В. Ж. Белое движение // *Большая Российская энциклопедия*. — Т. 3. — Москва, 2005. — С. 229–230.
29. Цветков В. Ж. Белое движение в России (1917–1922 гг.) // *Вопросы истории*. 2000. № 7. — С. 57.
30. Ziyoyeva D. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O'rta Osiyoda harbiy ishlar tarixidan // *O'zbekiston tarixi*. — 2002. — № 4.